

4 – SON / 2022 - YIL / 15 - DEKABR

**MUSIQA MA'DANIYATI DARSLARIDA O'QUVCHILARGA MUSIQIY HIS
TUYG'ULARNI SINGDIRISH VA RIVOJLANTIRISH.**

Norova Nafisa Ilxomovna

*Navoiy viloyati Zarafshon shahar 2-maktab
musiqa ma'daniyati fani o'qituvchisi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada musiqa madaniyati darslarining bolalar tarbiyasidagi ahamiyati, musiqa darslarida o'quvchilarga musiqiy his-tuyg'ularini shakllantirishning usullari va ahamiyati haqida ma'lumotlar berilgan.*

Kalit so`zlar: *mumtoz qo'shiqchilik, o'zbek xalq cholg`ulari, xor san`ati, musiqiy his-tuyg'u.*

O'quvchilarda musiqaga mehr va havas uyg'otish, maktab o'quvchilarining musiqiy saviyasini oshirish maqsadida mamlakatimizda ashula va musiqa sohasida olib borilayotgan ishlarni, yangiliklarni targ'ib etish, musiqa asboblari va ularning qanday qilib chalinishini o'rgatish, qobiliyatli o'quvchilarni xalqaro va Respublika doirasidagi tanlovlarga jalb qilish umumta'lim maktablaridagi musiqa madaniyati o'qituvchilarining vazifalari hisoblanadi va ular bu orqali musiqa darslarida o'quvchilarga musiqiy his-tuyg'ularini shakllantirishga muvaffaq bo'lishadi. Boshlang'ich va 9 yillik maktablarning har birida xor to'garaklari, sharoiti bor bo'lgan maktablarda cholg'u asboblari bo'lishi kerak. Ayni vaqtida o'quvchilarga yakka tartibda musiqa o'rgatish ishini uyushtirishga e'tibor berish, bu ishga ota-onalar jamoatchilagini jalb etish yaxshi samara beradi, degan fikrlar mavjud.

Musiqa madaniyati darsning har bir faoliyat turida shaqildoqlar, dutor, doira, doirachalar kabi turli bolalar musiqa asboblarida chalish, kuy va qo'shiqlarga mos raqs elementlarini bajarish, musiqa asboblarini chalinishini qo'l harakati bilan imitatsiya qilish, chapak chalish va dirijyorlik qilish kabi elementlardan keng foydalanish darslarni yanada qiziqarli va jozibali bo'lishini ta'minlaydi. Musiqa darsi boshqa darslardan o'zining badiyligi, qiziqarligi va bolalarga ko'proq ijodiy zavq, emotsiyonal tuyg'ular va obrazli kechinmalar uyg'otishi bilan ajralib turadi. Musiqa darslarida shakllangan ushbu tuyg'ular o'quvchilarni kelajakda yovuzlik, yovuz kuchlar tahdididan asrashi, ezgu ishlarga boshlashi shubhasiz.

Davlatimiz tomonidan musiqa madaniyatini ommaviy rivojlanirish maqsadida keyingi yillarda keng ko'lamli tadbirlar ishlab chiqildi va ular muntazam izchillikda hayotga tatbiq etilmoqda. Xususan, Prezident Shavkat Mirziyoyevning «Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlanirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarori bilan 2022/2023-o'quv yilidan boshlab umumiyl o'rta ta'lim muassasalarida o'quvchilarga milliy musiqa cholg'ularidan kamida bittasini chala olish mahorati o'rgatilishi va bu ularning shahodatnomasida qayd etilishi belgilangani ham musiqaga

bo'lgan e'tibordan darak beradi. Musiqa madaniyati darsi o`quvchilarda dastlabki musiqa madaniyatini, nafosat tuyg`usini shakllantitishning asosiy omilidir. Bundan tashqari o`quvchilar mashg`ulotlarda olgan bilimlarini sinfdan tashqari musiqa va xor to`garaklarida, shuningdek, mакtabdan tashqari turli musiqa va raqs to`garaklarida takomillashtirish imkoniga ham egadirlar.

Maktablardagi musiqa va xor to`garaklari hamda madaniyat saroylari, madaniyat uylari va yoshlar ijodkorlik uylari kabi maktabdan tashqari tarbiyaviy-madaniy muassasalarda tashkil etilgan musiqa to`garaklari, o`quvchilar xori, orkestr, raqs va vokal ansamblarining serqirra faoliyatlari bunga misol bo`la oladi. Bu kabi musiqiy to`garak a'zolari hozirgi kunda o`z san'atlarini faqatgina Respublikamizda emas, balki turli chet davlatlarda ham namoyish etib, ko`plab olqishlarga va faxrli o`rinlarga sazovor bo`lmoqdalar.

Musiqa to`garaklarida o`quvchilar asosan quyidagi yo`nalishlarda bilim va amaliy ko`nikmalarga ega bo`lishlari mumkin:

- Jamoa bo`lib kuylash;
- Turli cholg`u asbobida chalish;
- Musiqa tinglash madaniyati;
- Ansambl va orkestr jamoasida ijro etish;
- Turli raqs usullarini amalda bajarish;
- Elektron asboblarda chalish.

Musiqa to`garaklarida an'anaviy mumtoz ashulachilik kuylash malakalarini shakllantirishda milliy bezaklar, nola va qochirimlar muhim ahamiyat kasb etadi. O`quvchilarni kuylash chog`ida to`liq nafas olish, matnni to`g`ri talaffuz qilish, ijroni nola va bezaklar bilan kuylay olish, avj pardalarni kuylash chog`ida ashula ijrochiligiga ziyon yetkazmay, asarlarni sifatli va mahorat bilan kuylashga o`rgatish asosiy vazifalardan biridir. Bolalar milliy musiqa merosi haqida tushunchaga ega bo`lish va o`zlashtirish jarayonida amaliyotda bolalar va o`sмirlar uchun yozilgan musiqiy asarlar, o`zbek xalq cholg`ularida ijro etiladigan milliy kuylarimizni o`rganishdan iborat .

Musiqa fani bo`yicha o`quvchilar uchun dars mashg`ulotlaridan tashqari musiqa to`garaklarini ham tashkil etish mumkin. To`garaklarning maqsadi esa o`zbek mumtoz qo`shiqchiligi, jamoa bo`lib kuylash hamda o`zbek xalq cholg`ularida mashg`ulotlarni olib borishda ko`rsatma va tavsiyalarni taqdim etishdan iborat. Buning uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirish talab etiladi:

- musiqa to`garaklarini tashkil etish bo`yicha nazariy bilimlarga ega bo`lish;
- o`zbek mumtoz ashulachiligi mакtabi haqida nazariy va amaliy bilimlarni egallash;
- mumtoz ashulachilik ijro namunalarini tushunish va ijro eta olish;
- o`zbek mumtoz ashulachiligining yakka hamda jamoada kuylash tartib-qoidalarini o`rganish;

4 – SON / 2022 - YIL / 15 - DEKABR

- mashhur maqom maktabi vakillari ijro namunalarini asl holida o`rganish va kuylash;
- xor jamoasini tashkil qilish va ish olib borish, xor ijrochiligi va tarixi, ovozlar xususiyati, xor haqidagi nazariy bilimlardan foydalanish;
- san'atning boshqa turi teatr va qo`g`irchoq teatrlarida o`quvchilarning aktyorlik mahoratini shakllantirish.

Har bir mamlakatning musiqa tarbiyasi shu xalqning ma`naviy-madaniy rivojlanishi uchun xizmat qiladi. Musiqa san`atning alohida sohasi sifatida bolalar va o`smirlarda uning o`ziga xosligi haqida tasavvur hosil qiladi. To`garak mashg`ulotlari maxsus va umumiy o`rta ta`lim jarayonida o`sib kelayotgan avlodning musiqiy estetik va ma`naviy madaniyatini, bolalar va o`smirlarning musiqani ongli ravishda tushunishini shakllantirishda hamda o`quvchini ham, musiqa madaniyati fani o`qituvchisini ham amaliy faoliyatga tayyorlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. Matyoqubov. "Moqomat". Toshkent. "Musiqa" nashriyoti. 2004- yil.
2. M.Jalilov. "Qo`shiqlar xrestomatiyasi". I-II kitob. Toshkent. 2002-yil.
3. D.Q.Qodirov. "An'anaviy qo`shiqchilik". Toshkent. "Iqtisod-moliya".3008-yil.
4. <https://lex.uz>